

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**2016-2017 O‘QUV YILIDA IMKONIYATLARI CHEKLANGAN
BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB VA
MAKTAB-INTERNATLARNING 9 (10)-SINF BITIRUVCHILARI
UCHUN YAKUNIY NAZORAT IMTIHON MATERIALLARI VA
METODIK TAVSIYALAR**

(o‘zbek va rus tillarida)

TOSHKENT – 2017

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika Ta'lim markazi qoshidagi Maxsus ta'lim ilmiy metodik kengashi tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon biletlariga 15-20 % hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Tuzuvchilar:

Tikuvchilik

A. Bakiyeva – Toshkent shahridagi 37-sonli yordamchi maktab mehnat fani o'qituvchisi.

Duradgorlik

Sh. Tojiev – Toshkent shahridagi 66-sonli yordamchi maktab mehnat fani o'qituvchisi.

B. Valiev – Toshkent shahridagi 105-sonli yordamchi maktab mehnat fani o'qituvchisi.

Chilangarlik

Ю.Н.Зайкин – Toshkent shahridagi 25-sonli yordamchi maktab mehnat fani o'qituvchisi.

U. Zokirov – Toshkent shahridagi 199-sonli yordamchi maktab mehnat fani o'qituvchisi.

Kosibchilik

V. Ataxodjaev – Toshkent shahridagi 66-sonli yordamchi maktab mehnat fani o'qituvchisi.

Ona tili

M. Boqijonova – Toshkent shahridagi 106-sonli zaif eshituvchi bolalar maktab-internatining ona-tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Родной язык

Г. Исанбаева – Учитель родного языка школы-интерната №102 для слабослышащих детей г.Ташкент.

Matematika

O. Ibragimova – Toshkent shahridagi 101-sonli kar bolalar maktab-internatining matematika fani o'qituvchisi.

Ko‘zi ojiz, zaif ko‘ruvchi va tayanch – harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda bosqichli nazorat hamda yakuniy nazorat imtihonlari umumiy o‘rta ta’lim maktabiga qo‘yilgan talablar asosida o‘tkaziladi. Jismoniy tarbiya fani bundan mustasno.

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining 9 (10) – sinflari uchun: **“Ona tili va adabiyot”** hamda **“Matematika”** o‘quv fanlaridan (o‘zbek va rus tillarida).

Aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining 9 – sinflari uchun: **Mehnat ta’limi** fanidan (Tikuvchilik, Duradgorlik, Chilangarlik, Kosibchilik yo‘nalishlari bo‘yicha) (o‘zbek va rus tillarida).

Ko‘zi ojiz, zaif ko‘ruvchi va tayanch – harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda bosqichli nazorat hamda yakuniy nazorat imtihonlarini o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

1. Xalq ta’limi vazirligining 2017 yil 10 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2016-2017 o‘quv yilini yakunlash, o‘quvchilar bilimi, malaka va ko‘nikmalarini yakuniy davlat attestatsiyasidan o‘tkazish va sinfdan sinfga ko‘chirish bo‘yicha bosqichli nazorat imtihonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 78-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning bitiruvchi sinf o‘quvchilari yakuniy davlat attestatsiyasidan o‘tkaziladi.
2. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida o‘tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasida 10-sinfni bitiruvchi o‘quvchilar qatnashadi va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining imtihon materiallaridan foydalanadi, shuningdek, o‘quvchilarning imkoniyatini hisobga olgan holda quyidagi tavsiyalarga asoslanadi.
3. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda yakuniy davlat attestatsiyasida umumta’lim maktablari kabi barcha fanlardan imtihonlar Respublika Ta’lim markazi tomonidan tayyorlangan tavsiyalari asosida amalga oshiriladi.
4. Ushbu fanlar bo‘yicha imtihonlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun javobgarlik maktab-internat imtihon komissiyasi raisi: maktab-internat direktori yoki direktorining o‘quv-tarbiyaviy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga yuklatiladi.
5. Imtihon komissiyasi raisi: maktab-internat direktori yoki direktorining o‘quv-tarbiyaviy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, a’zolari: imtihon o‘tkazilayotgan fan o‘qituvchisi, sinf rahbari imtihon komissiyasi a’zolari ro‘yxati maktab-internatning ichki buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.
6. Yakuniy attestatsiyaga ta’lim jarayonida tayyorgarlik olib boriladi. Imtihonlarni o‘tkazish jadvali maktab-internatning pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda 30 kun oldin e’lon qilinadi.
7. Matematika fanidan tuzilgan har bir biletning 3-savoli geometriyaga oid sodda chizmalarga o‘zgartiriladi. Shuningdek, fizika va kimyo fanlaridan bajariladigan laboratoriya topshiriqlari o‘rniga fan o‘qituvchilari tomonidan sodda masala va mashqlar tuziladi.

Yangi tuzilgan savol, masala va mashqlar maktab-internatning aniq fanlar bo‘yicha metodbirlashma yig‘ilishining qarori bilan tasdiqlanadi va shu asosida o‘tkaziladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining 9 (10) – sinflari uchun **“Ona tili va adabiyot”** hamda **“Matematika”** o‘quv fanlaridan **yakuniy nazorat imtihonlarini o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**
(o‘zbek va rus tillarida)

1. Yakuniy nazorat imtihonlarini o‘tkazish tartibi

O‘quvchining ona tili va adabiyot fanidan egallagan ko‘nikma va malakalari u yozgan bayon matnida aks etadi. 9 (10)-sinfda asosiy ko‘rsatkich fikrni mantiqiy izchillikda ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ravon va to‘g‘ri bayon eta olish malakasi, fikrini yozma shaklda bayon etishda o‘quvchining bilimlari kengligi va chuqurligi, tuzgan matnining imloviy (tugal fikr ifodalangan matn), uslubiy savodlilik darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli kar va zaif eshituvchi bolalar maktab va maktab-internatlarining 9 (10)-sinf bitiruvchilari ona tili va adabiyot fanidan yakuniy attestatsiyada **ijodiy bayon** yozadilar.

Ijodiy bayon ta’limiy bayonning murakkab turlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarni tanlangan matnning badiiy jihatdan aniq va puxta, mantiqiy izchil, ijtimoiy hayot va voqelik bilan bog‘liq holda yoritishga, mustaqil ijodiy fikrlashga, ona tilining boy ifoda vositalaridan unumli foydalanishga o‘rgatadi. Shuningdik, ijodiy bayon yozma nutq malakalarini tarkib toptirish va savodxonlik darajasini oshirish, bu boradagi bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida yoziladi.

Ijodiy bayonda ko‘proq badiiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar, ijtimoiy va siyosiy hayot, fan va texnika yangiliklari, fanlararo bog‘liqlik to‘g‘risidagi mavzular yoritiladi.

O‘quvchilar bayonning quyidagi turlaridan foydalanib **ijodiy bayon** yozadilar.

- Matnga badiiy tasvir vositalarini kiritish orqali ijodiy bayon yozish
- Boshlab berilgan matnni o‘z fikr-mulohazalari asosida davom ettirish
- Matn shaxsini o‘zgartirib ijodiy bayon yozish
- Grammatik topshiriqni ijodiy bayon

Ijodiy bayon yozish jarayonida o‘quvchilar quyidagilarga e’tibor berishlari lozim:

- matnning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi, nima haqida yozish kerakligini bilishi;
- matn mavzusiga oid ma’lumotlarni eslab qolishi;
- matn rejasini (sodda) tuzishi;
- reja asosida asosiy fikrlarni aniq, ketma-ket bayon etishi;
- matndagi voqea-hodisalarni atroflicha mushohada etgan holda yoritishi;
- mavzuga doir o‘z mustaqil fikr-mulohazalarini yozishga erishishi;
- jumalarni tuzishda uslubiy va imlo savodxonligiga e’tibor berishi;
- ijodiy bayon qoralama nusxasi tayyor bo‘lgach, uni qayta o‘qib chiqishi;
- tayyor bo‘lgan yozma ishni oqqa ko‘chirishi.

Bayon matnlari 3 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo‘lib, har bir matn bilan birga ijodiy bayon yozishning bir turi asosida topshiriq beriladi. Imtihon boshlanishidan oldin bir o‘quvchi 3 ta variantdan (konvertdan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn mavzusi va ijodiy bayon uchun berilgan

topshiriq doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan ijodiy bayon matni og'zaki, daktilda ikki (lozim bo'lsa uch) marta o'qib eshittiriladi. O'quvchilar eshitgan matn yuzasidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar. Ijodiy bayon hajmi kamida (180-200 ta so'zlardan iborat bo'lgan) 2-2,5 bet bo'lishi lozim.

Ijodiy bayon yozish uchun 3 astronomik soat beriladi.

Kar va zaif eshituvchi maxsus maktab va maktab-internatlarining 9 (10) - sinflarida o'quvchilarning ta'lim tayyorgarligi darajasini baholashning reyting tizimiga ko'ra ijodiy bayon quyidagi umumlashtirilgan BKM elementlari asosida tekshiriladi va baholanadi.

Bunda ijodiy bayon uchun ikkita baho, jumladan, mazmuniga va savodxonligiga (5 / 5 tarzida) qo'yiladi.

2. Yakuniy nazorat imtihon natijalarini baholash tartibi

T/r	Bilim, ko'nikma, malakalar	mazmuni	savodxonligi
1.	Reja mavzuga muvofiq tuzilgan, matn mazmuni to'g'ri bayon qilingan bo'lsa; so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo'lib; mazmun va ifodada bir ikki xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda qo'pol bo'lmagan 1-2 ta imlo yoki 2 ta ishorat xatosi bo'lsa; uslubiy xato bo'lmasa.	5	5
2.	Matn reja asosida yoritilib, so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa; mazmun va ifodada kamchilik bo'lib, savodxonlikda 3 ta imlo, 3 ta ishorat va 3 tagacha uslubiy xato mavjud bo'lsa.	4	4
3.	Mavzu to'liq yoritilmagan, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo'lsa; aniq voqeyilik izohida nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; so'z boyligi va ifoda tuzilishida xatolik sezilib tursa; savodxonlikda 4 tagacha imlo, 4 tagacha ishorat, 3 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	3	3
4.	Matn mazmuni ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib, savodxonlikda 7 tagacha imlo, 7 tagacha ishorat va 7 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	2	2
5.	Me'yorlash "2" baho uchun belgilangan mezondan oshsa.	1	1

Ijodiy bayon uchun matnlardan namunalar

I variant

1. Ona – Vatanim O‘zbekiston

II variant

2. Navro‘z- bahor bayrami.

III variant

3. Ota-ona – ulug‘ zot

Ona – Vatanim O‘zbekiston

Vatan! Bu so‘z zamirida olam-olam ma’no bor. Vatanni onaga qiyoslashadi, chunki Vatan ona kabi muqaddas va yagonadir. Vatanimiz onamiz kabi bizni o‘z bag‘rida o‘stiradi. Shuning uchun Vatanimizni sevamiz va uning nomini „Ona-Vatan“ deb ataymiz.

Ona Vatanim - O‘zbekiston. Serquyosh respublikamiz ajoyib tabiati, mehmondo‘st xalqi, noz-ne‘matlari bilan dunyoga mashhur. O‘zbekiston Sirdaryo bilan Amudaryo oralig‘ida joylashgan. U Toshkent shahar, 12 ta viloyat va 1 ta respublikadan iborat. Respublikamizda ko‘plab obod shahar va qishloqlar bor. O‘lkamizda to‘rt fasl to‘liq mujassam bo‘lib, serquyosh issiq iqlimi shirin – shakar mevalar, poliz ekinlari, paxta, kanop singari ekinlarni yetishtirish imkonini beradi.

Bu yurtda go‘zal bog‘lar, yuksak tog‘lar, bepoyon dalalar, qir-adirlar, zilol suvlar, zamonaviy turar-joy binolari va bir-biridan ko‘rkam shahar va qishloqlar juda ko‘p.

O‘zbekiston - buyuk allomalar yurti. Bu yurtda Amur Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy kabi ulug‘ zotlar yashab o‘tganlar.

Yurtimizda yoshlarga katta e‘tibor qaratilib, ko‘plab imkoniyatlar yaratilgan. Chunki biz yoshlar O‘zbekistonning kelajagi va ajdodlarimiz, davomchilarimiz. Bizning barkamol, sog‘lom bo‘lib voyaga yetishishimiz, chuqur bilim olishimiz uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Yurtimizda ta‘lim-tarbiya olishimiz uchun jahon talablariga mos yangi maktablar, akademik litseylar, kollejlari, oliy o‘quv yurtlari bunyod etilgan. Bizning maktab-internatimiz ham zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlangan.

Respublikamizning tarixiy shaharlariga dunyoning turli burchaklaridan sayohatchilar mehmon bo‘lib keladilar. Ular diyorimizning turli xil noz–ne‘matlaridan bahramand bo‘ladilar. Xalqimizda „Mehmon otangdek ulug‘“ degan naql bor.

O‘zbek xalqining bag‘ri keng, u har bir mehmonni ochiq chehra bilan kutib oladi. Men ana shunday yurt farzandi ekanligimdan faxrlanaman.

Topshiriq:

1. Matn asosida reja tuzing.
2. Rejaga ko‘ra o‘z fikrlaringizni qo‘shib ijodiy bayon yozing.

Navro‘z- bahor bayrami.

Navro‘z – bahor bayrami. Navro‘z-yasharish, yangilanish bayrami.

Navro‘z Sharq xalqlari orasida bir necha ming yillardan buyon yashab kelmoqda. U tabiatdan kelib chiqib, kun bilan tunni tenglashgan kunidir. Uzoq qishdan so‘ng ko‘kda quyoshning yuz ko‘rsatishi, qirda maysa-giyohlarning nish urib chiqishi xalqimiz uchun haqiqiy shodiyonaga aylangan. Bu bayram avvalo ona tabiatning jonlanishi, yangilanishi, mehr-muruvvat ko‘rsatib, yorug‘ kunlardan darak bergan holda kelinchakdek o‘z yashil sepini keng yoyishi bilan boshlangan.

Har yili 21-mart kuni Respublikamizning barcha shahar va qishloqlarida Navro‘z bayrami katta shodiyona bilan nishonlanadi.

Bahorda dehqonlarimiz ham dala ishlarini boshlab yuboradilar, yer haydab, ekin ekadilar. Bahorgi gullardan boychechak, chuchmoma, binafshalar ochiladi. Qir- adirlar esa lola va lolaqizg‘aldoqlar bilan qoplanadi. Tevarak-atrof yashil libosga burkanadi.

Navro‘z bayramiga yaqin ko‘chalar, hovlilar, uylar tozalanib daraxtlarga shakl berilib, oqlanadi. Tevarak-atrof obodonlashtirilib, turli xil gullar, yangi nihollar ekiladi. Navro‘z bayramining eng ahamiyatli jihatlaridan biri shuki, shu kuni keksalar va bemorlar holidan xabar olinadi. Navro‘zda urushganlar yarashib, bir-birlarini Navro‘z bilan tabriklab, tinchlik va omonlik tilaydilar.

Navro‘z kuni ko‘katlardan turli xil taomlar tayyorlanadi. Ko‘k somsa, ko‘k chuchvara, qatlama, osh, halim va sumalaklar pishiriladi. ”Sumalak” va “Halim” Navro‘zning milliy taomi hisoblanadi.

Yurtimizdagi turli millat vakillari Navro‘z bayramida o‘zlariga xos bo‘lgan urf-odat va madaniyatlarini namoyish etadilar. Bu orqali do‘stona munosabatlari mustahkamlanib boradi. Bayram munosabati bilan yurtimizdagi barcha viloyat va tumanlarda xalq sayllari o‘tkaziladi.

Navro‘z qadimiy urf-odatlarimizni avlodlardan-avlodlarga olib kelayotgan umr boqiy bayramdir.

Topshiriq:

1. Matn asosida reja tuzing.
2. Rejaga ko‘ra o‘z fikrlaringizni qo‘shib ijodiy bayon yozing.

Ota-ona—ulug‘ zot

Ota-onani e‘zozlash va ulug‘lash asrlar davomida avlodan-avlodga o‘tib kelayotgan an‘anadir. Ota-onasining qadrini bilmagan odam do‘stlarining hurmatiga arzimaydi. Farzand ota-onaga shirin so‘z, xushmuomala, mehribon bo‘lsa, ularning duolarini oladi. Bizning dunyoga kelishimizga, o‘shib-ulg‘ayib, kamolga yetishimizga asosiy sababchilar ana shu buyuk insonlardir.

Farzand ota-onaga kuch-qudrat baxsh etadi. Bobolarimizning: “Farzand ota-ona ko‘zining oq-u qorasi, belining quvvatidir”,- degan qimmatli so‘zlari farzandlarga bo‘lgan mehr-muhabbatini ifoda etadi. Ota-ona qayerda bo‘lmasin - ishdami, uzoq safardami, ularning ko‘z oldida doim farzandlarining timsoli gavdalanib turadi.

Bizga ko‘rsatilgan bunday mehribonlikni his etishimiz, o‘zimizning namunali xulqimiz va odobimiz bilan ularga javob qaytarishimiz zarur. Bekorga xalqimizda biror hayrli ish qilgan kishiga qarata: “Seni tarbiya qilgan ota-onangga rahmat”,- deb aytishmaydi. Shunday ekan, ota-onalarning bizga bergan tarbiyalarini oqlab, ularga rahmatlar keltirish bizning farzandlik burchimizdir.

Ota-onaning eng baxtlisi – bu farzandlari ortidan tashakkur eshitganlaridir. Ota-onalarimizni hurmat qilaylik, e‘zozlaylik, chunki ular bizga g‘animatdirlar. Bu yorug‘ olamda mehr bisyor, bu yorug‘ olamda sahovat cheksiz. Keksalarimiz ko‘zimiz quvonchi, hayotimiz tayanchi, ularning borligi bizning baxtimiz. Ular bizga ko‘mak berib hamisha to‘g‘ri yo‘lga boshlaydilar. Ularning qalbidagi soflik va beg‘uborlikni yer yuzidagi hech narsaga qiyoslab bo‘lmaydi. Ularning bergan nasihatlarini bizning har bir bosgan qadamimizga, har bir qilayotgan ishimizga asos bo‘ladi. Ularning yuzlari doim tabassumda, ko‘zlaridan go‘yo ular bizga har doim ezgulikdan saboq berayotganday.

Ota-onalarimiz bizning eng katta boyligimizdir. Ularni e‘zozlashga doim vaqt topaylik. Ota-onalarimizning suhbatlaridan, mehrlaridan bahramand bo‘laylik.

Topshiriq:

1. Matn asosida reja tuzing.
2. Rejaga ko‘ra o‘z fikrlaringizni qo‘shib ijodiy bayon yozing.

Русский язык

Итоговая аттестация в школах-интернатах для глухих и слабослышащих детей проводится в письменной форме в виде изложения. На аттестации учащимся предоставляется возможность показать свои знания, умения и навыки, приобретённые за весь учебный период в школе-интернате.

Цель проведения изложения – проверка уровня усвоения изученного материала и умения применять пунктуационные и орфографические правила на практике, а также умения учеников самостоятельно мыслить, уопределять главную мысль прослушанного текста и излагать его письменно.

Тексты изложений, предназначенные для итоговой аттестации, готовятся в трёх вариантах. В каждом конверте - по одному варианту изложения. Один ученик выбирает конверт. Выбранный учеником конверт вскрывается. Вариант текста изложения записывается на доске.

Выбранный текст читается учителем, затем ученики комментируют прослушанный текст. Учитель объясняет написание трудных слов, проговаривает их по слогам, а затем записывает эти слова на доске. Записывается план изложения. По плану изложения дети пересказывают текст, после чего они приступают к записи изложенного материала.

Текст изложений должен состоять не менее чем из 180-200 слов. Объём написанного изложения - 2-2,5 страницы.

Критерии оценки

№	содержание	
1	Полное восприятие общего содержания прочитанного текста. Текст написан без ошибок (допускается одна-две незначительные ошибки).	5
2	Полное восприятие общего содержания прочитанного текста, но при этом ученик допускает ошибки в написании 3-4 слов	4
3	Ученик воспринял общее содержание текста, но допустил ошибки при изложении отдельных частей текста, а также ошибки в написании 4-6 слов	3
4	Общее содержание не соответствует тексту изложения. Допустил большое количество ошибок (5-7 ошибок).	2
5	Общее содержание не соответствует тексту изложения. Ошибок больше, чем критерии оценки «2»	1

Примерные темы для творческого изложения

Искусство быть здоровым

Великое счастье в жизни каждого человека – здоровье. Если ты здоров, то владеешь большим богатством. «Единственная красота, которую я знаю, - это здоровье», - писал немецкий поэт Г.Гейне.

Наше государство уделяет большое внимание сохранению здоровья каждого жителя. Первый Президент Республики Узбекистан Ислам Абдуганиевич Каримов сказал: «Великое государство может построить лишь здоровое поколение. Такое поколение должно быть здоровым не только физически, но и духовно. Оно должно любить свою Родину учиться и работать на её благо. Вот почему сохранение здоровья граждан является главной задачей нашей Республики».

Для достижения этой цели строятся современные спортивно-оздоровительные комплексы, больницы, в которых есть новейшая аппаратура. Для этого в вузах Узбекистана готовят квалифицированных медицинских работников. Сотни тысяч врачей ведут постоянную работу по профилактике различных заболеваний.

О сохранении своего здоровья следует заботиться смолоду. Прежде всего необходимо больше двигаться. Без движения, без занятий физкультурой, спортом невозможно быть здоровым. В Греции две тысячи пятьсот лет назад на скале были высечены слова: «Если хочешь быть сильным – бегай, хочешь быть умным – бегай!» В каждой школе есть различные спортивные секции, одну из которых ты можешь выбрать, чтобы улучшить свои спортивные показатели. Занятия физкультурой, спортом помогают сохранить здоровье.

Нельзя допускать таких вредных привычек, как курение, употребление алкоголя и наркотиков. Они вызывают тяжёлые болезни, приводят к раннему старению, преждевременной смерти.

Очень важно воспитывать в себе волю, твердый характер, умение управлять собой. Если научишься радоваться солнцу, ясной погоде, празднику или встрече с друзьями, то долголетие тебе обеспечено.

Древняя мудрость гласит: «В здоровом теле – здоровый дух!»

Опорные слова и словосочетания: поэт Г.Гейне, уделяет внимание, здоровое поколение, спортивно-оздоровительные комплексы, профилактика заболеваний, употребление алкоголя, наркотики, новейшая аппаратура, спортивные показатели, долголетие обеспечено.

Задание. Написать изложение по данному плану:

1. Здоровье – большое богатство.
2. Сохранение здоровья граждан – наша главная задача.
3. Что делает государство для сохранения здоровья граждан?
4. Занятия физкультурой, спортом – средство сохранения здоровья.
5. «Нет» - вредным привычкам.
6. Воспитание характера – средство обеспечения долголетия.

Ассалом, Навруз!

Слово «Навруз» переводится как «новый день». Этот праздник отмечается 21 марта. Именно в это весеннее время года природа окончательно просыпается после зимней спячки, символизируя своим обновлением начало нового года.

Как же празднуют Навруз в наши дни? Если празднование европейского Нового года начинается в полночь, то Навруз празднуют днём. Как и Новый год, Навруз – праздник семейный, его также принято справлять в кругу родных и близких. В праздничные дни в парках и садах по традиции высаживается большое количество молодых саженцев фруктовых деревьев.

Жители городов и сёл Узбекистана готовятся к Наврузу заблаговременно. В каждой махалле проводятся хашары. Люди, объединённые общей задачей подготовки к празднику, приводят город или село в праздничный вид.

И вот наступает долгожданный день 21 марта. Начинается праздничное веселье. В каждой махалле накрываются праздничные столы, в огромных казанах готовится ароматный плов, слышатся музыка и песни. Вот такое всенародное веселье!

Отведайте сумаляк! Навруз ещё с древних времён считается особым праздником. Поэтому и стол должен быть накрыт по-особому щедро. В день Навруза главными праздничными блюдами являются плов, шурпа и самса с первой зеленью. На столе также должны быть разнообразные салаты, сладости и фрукты. Но гвоздь программы в этот день – тарелочка с проросшей пшеницей. Это блюдо обязательно должно стоять на каждом праздничном столе.

Из зёрен проросшей пшеницы готовят главное праздничное лакомство – сумаляк. Готовят его по-особому, это настоящий ритуал, участие в котором принимают только женщины. Сумаляк готовится долго, в течение целых суток. Женщины, сменяя друг друга, медленно помешивают в огромном котле проросшие зёрна пшеницы, которые, благодаря их стараниям, постепенно превращаются в густую, тягучую, коричневую массу. Во время этого действия, женщины напевают народные песни о весне, о празднике Навруз. Во время помешивания в котле раздаются интересные звуки. Это ударяются друг о друга небольшие камешки или орехи. Хорошо вымытые камешки и орехи специально кладут на дно котла в самом начале приготовления сумаляка. Это нужно для того, чтобы блюдо не пригорало, пока его готовят. А если такой камешек или орех окажется в вашей пиале с сумаляком – радуйтесь. Теперь весь год будет удачным и счастливым!

Опорные слова и словосочетания: символизируя обновлением, справлять, заблаговременно, хашар, всенародное веселье, ароматный плов, разнообразные, сумаляк, ритуал

Задание. Написать изложение по данному плану:

1. Навруз – Новый год по солнечному календарю.
2. Навруз – праздник семейный.
3. Всенародный хашар.
4. Праздничное угощение.
5. Приготовление сумаляка – главный ритуал Навруза.

Выбор профессии

В мире существуют тысячи профессий. О большинстве из них мы знаем очень много. Однако встречаются редкие профессии, о которых мы ничего не знаем. О них мы можем прочесть или узнать у людей, работающих по этой специальности.

Вы неплохо рисуете, вам нравится это занятие. В дальнейшем вы хотели бы работать там, где способности к рисованию вам быгодились. Например, в производстве тканей есть профессия копировальщика рисунков, а в полиграфии – профессия ретушера.

В жизни каждого человека наступает момент, когда приходится решать, где продолжить обучение или куда пойти работать. Важно правильно выбрать профессию, свой жизненный путь. Выбор профессии важен, так как это твоя будущая работа, твой ежедневный труд. И любой школьник стоит перед выбором, решая, с какой деятельностью связать свою жизнь.

Подходить к выбору профессии нужно с большой ответственностью, не делая поспешных выводов. Профессия – это очень важная часть жизни человека. И чем удачнее сделан выбор, тем большего можно достичь в профессии и ощутить себя успешным и счастливым человеком.

Когда человек находит свое призвание в жизни, работа превращается для него в увлекательный процесс, а это отражается на производительности труда. А как же быть, если у человека нет некоторых необходимых для избранной профессии способностей? В этом случае возможны два пути: или изменить свой выбор, или работать над собой и развивать необходимые способности.

Недостатки памяти можно развивать ведением различных записей, дневников. Активная учеба в школе позволяет каждому развивать умственные способности, и прежде всего ясность, самостоятельность мышления, сообразительность, логичность и критичность ума. Следует стремиться развивать и волевые качества: решительность, настойчивость, дисциплинированность, уверенность в своих силах, выдержку.

Профессию нужно выбирать не только сердцем, но и умом, взвесив все «за» и «против». Нужно выслушать советы родителей, учителей, знающих людей, а потом принимать решение, от которого зависит вся твоя жизнь.

Опорные слова и словосочетания: пригодились, копировальщик, ретушер, увлекательный процесс, отражается на производительности, самостоятельность, сообразительность, дисциплинированность, ощутить себя успешным

Задание. Написать изложение с элементами рассуждения по плану:

1. Виды профессий
2. Момент выбора.
3. А если нет способностей?
4. Как помочь себе выбрать профессию?
5. Выбор сердца и ума.

MATEMATIKA

Soʻz boshi

Maxsus kar va zaif eshituvchi bolalar maktab va maktab-internatlarining 9-, 10-sinflarida matematika fanidan yakuniy attestatsiya yozma ravishda, tavsiya qilingan biletlar asosida oʻtkaziladi.

Davlat attestatsiya biletleri, jami 14 ta biletdan iborat boʻlib, har bir bilet 4 ta topshiriqdan iborat. Ulardan 3 tasi algebra kursidan, 1 tasi geometriya kursidan olingan. Bilet topshiriqlari 7-, 9-sinf oʻquv dasturi asosida tuzilgan.

Topshiriqlarga berilgan javoblar nafaqat bajarish usullari, balki yozma javoblarning savodliligi va toʻgʻri izohlanishi ham baholanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyaga 3 astronomik soat (180 daqiqa) ajratiladi. Attestatsiya jarayonida har bir oʻquvchi bilet tanlaydi va biletidagi topshiriqlarga talablar asosida javob tayyorlaydi.

Oʻquvchilarning yozma ishlari 5 baho tizimi asosida algebra va geometriyadan baholanadi.

Yakuniy nazorat imtihonida oʻquvchilarning matematikadan yozma ishlarini baholash mezonlari

№	Yechimning toʻgʻriligi (notoʻgʻriligi)	baho
1.	Har qanday toʻgʻri yechim uchun; mantiqiy fikrlashda va yechimni asoslashda qoʻpol hatoga yoʻl qoʻyilmasa; javobga mos chizma va grafiklar toʻgʻri bajarilsa hamda yozma ishga qoʻyilgan barcha talablarga mos kelsa.	5
2.	Toʻliq asoslangan yechim uchun, lekin hisoblashdagi ayrim kamchiliklar va toʻgʻri javob olishga taʼsir qilmaydigan 2-3 ta hatolar uchun; teorema va formulalarni qoʻllashda hisoblashlardagi ayrim xatoliklar uchun.	4
3.	Topshiriqlarni bajarishda qoʻpol xatolarga yoʻl qoʻyilganda. Hisoblashlardagi ketma-ketlik buzilganda.	3
4.	Oʻquvchining bajargan ishida boʻshliqlar juda koʻp boʻlgani sababli toʻgʻri javobga erishilmaganda.	2
5.	Oʻquvchi tomonidan berilgan topshiriqlarning hech biriga matematik nuqtai nazardan yondashilmaganda. Meʼyorlash “2” baho uchun belgilangan mezondan oshsa.	1

Taʼkidlash kerakki, har bir toʻgʻri javob 5 baho bilan baholanadi. Oʻquvchining misollarni yechish yoʻli juda ham uzun boʻlsa yoki oʻquvchining yechimi ushbu metodik tavsiyadan hamda oʻqituvchiga ayon yechim yoʻllaridan farq qilsa, buning uchun oʻquvchining bahosi pasaytirilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

1-bilet

1. Bir noma'lumli tenglamani yechish.
2. $y = 2x + 1$ funksiya grafigini yasang.
3. $x^2 - 3x + 2 < 0$ tengsizlikni yeching.
4. Parallelogramm va uning xossalarini yozing.

2-bilet

1. $y = ax^2$ funksiya ta'rif bering va funksiya grafigini yasang.
2. Ifodaning qiymatini toping.

$$9a^3 - a(3a + 2)^2 + 4a(3a + 7), \text{ bunda } a = 3$$

3. Kvadrat tenglamani yeching.

$$9x^2 - 6x + 1 = 0$$

4. Asosiy trigonometrik ayniyatlarni yozing.

3-bilet

1. Kvadrat tenglama va uning ildizlari.
2. Kasrlarni umumiy maxrajga keltiring.

$$\frac{m}{2m+2n} + \frac{n}{8m-8n} \text{ va } \frac{mn}{6m^2-6n^2}$$

3. Arifmetik ildiz xossalaridan foydalanib, hisoblang.

a) $\sqrt[3]{2} \cdot \sqrt[3]{500}$

b) $\sqrt[4]{324} : \sqrt[4]{4}$

4. Uchburchak ichki burchaklari yig'indisi haqidagi teoremani yozing.

4- bilet

1. Chiziqli tenglamalar sistemasi.
2. Amallarni bajaring.

$$\frac{b-7}{4} + \frac{5b-2}{3} + \frac{3b-1}{8}$$

3. Kvadrat tenglamani yeching.

$$x^2 - x - 12 = 0$$

4. Trapetsiyaning o'rta chizig'i 16 sm ga, asoslaridan biri esa 12 sm ga teng.

Trapetsiyaning ikkinchi asosi nimaga teng?

5- bilet

1. Yig`indining va ayirmaning kvadratlari formulalarini yozing.
2. Tenglamalar sistemasini algebraik qo`shish usuli bilan yeching.

$$\text{a) } \begin{cases} 4x + 7y = 40 \\ -4x + 9y = 24 \end{cases}$$

$$\text{b) } \begin{cases} 5x - 2y = 1 \\ 7x + 2x = 11 \end{cases}$$

3. $y = 2x^2 + 1$ funksiya grafigini yasang.
4. Aylanaga ta`rif bering. Unda radius, diametr va vatarni ko`rsating.

6- bilet

1. Natural ko`rsatkichli darajaning xossalarini yozing.
2. Graduslarda ifodalangan burchaklarning radian o`lchovlarini toping.

$$\text{a) } 30^\circ$$

$$\text{b) } 120^\circ$$

$$\text{d) } 90^\circ$$

$$\text{e) } 270^\circ$$

3. Tenglamani yeching.

$$4(x + 2) - 2(3x - 2) = 14x - 5(x + 3)$$

4. Uchburchakning o`rta chizig`i haqidagi teoremani yozing.

7- bilet

1. Arifmetik ildizning xossalarini yozing va misollar keltiring.
2. Tengsizliklar sistemasini yeching.

$$\begin{cases} 3x + 3 \leq 2x + 1 \\ 3x - 2 \leq 4x + 2 \end{cases}$$

3. Ko`phadlarni standart shaklga keltiring.

$$13ab - 0,2xy - (2a)(5b) + (6x)(0,2y) + a(-3)b$$

4. TrapESIYANING o`rta chizig`i haqidagi teoremani yozing.

8-bilet

1. Bir noma`lumli tengsizliklar. Ularni tengsizliklar xossalaridan foydalanib yechish.
2. Chiziqli funksiya grafigini yasang

$$y = -2x + 1$$

3. Ifodani soddalashtiring.

$$a) \cos \alpha \cdot \operatorname{tg} \alpha - 2 \sin \alpha$$

$$b) \frac{\sin^2 \alpha}{1 - \cos \alpha}$$

4. To'g'ri to'rtburchakning perimetri 26 sm ga teng, tomonlaridan biri esa 9 sm ga teng. To'g'ri to'rtburchakning yuziga teng bo'lgan kvadratning tomonini toping.

9-bilet

- Umumiy ko'paytuvchilarni qavsdan tashqariga chiqarish qoidasini yozing.
- Kasrlarni qisqartiring.

$$a) \frac{9x^2 - 16}{16 - 24x + 9x^2}$$

$$b) \frac{3a(a+b)}{9a(a+b)(a-b)}$$

- Amallarni bajaring.

$$(8345 + 655) : 150 \cdot 13 - 1000 : (48 \cdot 3 + 56)$$

- Teng yonli ABC uchburcharda AC - asos, BD - balandlik. AC=16 sm, BD= 6 sm bo'lsa shu uchburchakning yuzini va uning tomonini toping.

10-bilet

- Burchakning sinusi, kosinusi va tangensi ta'rifini yozing.
- Algebraik kasrlarni qo'shing va ayiring.

$$a) \frac{2x}{3(a-b)} + \frac{x}{(a-b)}$$

$$b) \frac{4y}{5(y-3)} - \frac{5y}{2(y-3)}$$

- Kvadrat tenglamani yeching.

$$3x^2 + 8x + 5 = 0$$

- Sirk arenasi aylanasi uzunligi 40,82 m. Arena radiusi va yuzini toping.

11-bilet

- Musbat va manfiy sonlarga ta'rif bering.
- Ifodani qiymatini toping.

$$a) -0,008x + 73xy^2 + 27xy^2, \text{ bunda } x = 4, y = 0,2$$

$$b) 5x^3 - 3x^2 - 7x - 6x^2 - 7x^2 + x, \text{ bunda } x = -2$$

- $y = x^2 - 5x + 6$ funksiya grafigini yasang.

4. Uchburchak. Uchburchak turlari.

12-bilet

1. Arifmetik progressiyaga ta`rif bering.
2. Parabola uchining koordinatalarini toping.

$$y = x^2 - 4x - 5$$

3. Amallarni bajaring.

$$38279 - 70672 : (6234 - 5603) \cdot 306 - 2007$$

4. Uchburchakning asosiy elementlari: mediana, bissektrisa va balandlik.

13-bilet

1. Ko`phadni birhadga ko`paytirish qoidalarini yozing.
2. Ifodani soddalashtiring: $(2x + 3y)(2x - 3y) + (2x + 3y)^2$
3. Tengsizliklarni yeching: a) $2x - 16 > 0$ b) $4y + 8 < 20$
4. Ko`pburchakning ichki burchaklari yig`indisi formulasini $n=4$ ga teng bo`lgandagi holini hisoblang.

14-bilet

1. Algebraik kasrlarni qo`shish va ayirish qoidalarini yozing va misollar keltiring.
2. Umumiy ko`paytuvchini qavsdan tashqariga chiqaring:
$$20x^5y^4 - 32x^3y^6 + 36x^4y^3$$
3. Kvadrat tenglamani yeching: $4x^2 - 4x + 1 = 0$.
4. Teng yonli uchburchakning perimetri 48 sm, yon tomoni 18 sm ga teng. Uning asosini toping.

Математика

Введение

Итоговая государственная аттестация в 9-10-х классах в спецшколах-интернатах для глухих и слабослышащих детей проводится в письменном виде, на основе рекомендованных билетов.

